

**MAMLAKATIMIZDA RESURS SOLIQLARI VA MOL-MULK SOLIG‘I
BO‘YICHA DAROMADLARNING O‘ZGARISHILARNI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil izlanuvchi Nasimdjanov Yunusjon Zoxidovich

Annotasiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda resurs soliqlari va mol-mulk solig‘i bo‘yicha samarali foydalanishda soliq tizimining ta’sirchanligini yanada oshirishga oid ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bundan tashqari soliqqa tortish maqsadida tabiiy boyliklarni iqtisodiy jihatdan guruhash va ularning xususiyatlarini ko‘rsatib berish, tabiiy boyliklarni soliqqa tortishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini nazariy tahlil qilish, tabiiy boyliklarni soliqqa tortishning xorij tjribasini qiyosiy jiahtadan tahlil qilish va uning o‘ziga xos xususiyatlarini yortib berish.

Kalit so‘zlar: resurs solig‘i, nedra solig‘i, byudjet, soliq ma’murchiligi, soliq salohiyati, normativ tahlil, pozitiv tahlil, soliq yuki, reprezentativ soliq stavkasi, o‘rtacha stavka soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi. konlar, xorijiy investorlar.



Kirish. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining asosiy vazifalaridan biri resurs soliqlari va mol-mulk solig‘i bo‘yicha xususiy investorlar va ilg‘or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish orqali yuqori darajada qo‘srimcha qiymat yaratishdan iborat. Respublikamiz soliq tizimida tabiy boyliklardan samarali foydalanish maqsadlarida soliq ob‘yeti sifatida belgilagan.

2021 yilda resurs soliqlari va mol-mulk solig‘i bo‘yicha umumiyl tushumlar 23,0 trln. so‘mni tashkil etdi. Bu 2020 yil bilan solishtirganda 1,8 trln. so‘mga ko‘p.

2021 yilda resurs soliqlari va mol-mulk solig‘i bo‘yicha daromadlarning asosiy ulushi avvalgidek 68,6 foizi yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqqa to‘g‘ri keladi. Ushbu soliq bo‘yicha tushumlarning asosiy ulushi (74 %) davlat ulushiga ega tog‘-kon sanoati korxonalariga to‘g‘ri keladi.

2021 yil 1 yanvardan oltin, palladiy, kumush bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 20 % dan 15 % gacha pasaytirilganiga qaramay, bir yilda tushumlar atigi 0,6 trln. so‘mga kamaydi. 2021 yilda oltin va mis narxlarining oshishi, ishlab chiqarish hajmlarining oshirilishi, shuningdek milliy valyuta kursi dinamikasi sabab bo‘ldi.

2021 yilda mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bo‘yicha tushumlar 2,2 trln. so‘mga oshib, 6,5 trln. so‘mni tashkil etdi. Shundan mol- mulk solig‘i bo‘yicha – 2,4 trln. so‘m, yer solig‘i bo‘yicha – 4,1 trln. so‘m.

Qo‘srimcha tushumlar quyidagilar hisobiga ta’minlandi:

liniyali ob’ektlar va boshqa ob’ektlarga nisbatan

qo‘llaniladigan mol-mulk solig‘i bo‘yicha pasaytirilgan stavkaning 0,2 % dan 0,4 % gacha va yer solig‘i stavkalariga pasaytirish koeffitsientining 0,1 dan 0,25 gacha oshirilishi;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yer solig‘i bo‘yicha bazaviy soliq stavkalarining 15%ga indeksatsiya qilinishi. Bunda soliq stavkalarining aniq miqdori mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tumanning iqtisodiy rivojlanishi va nufuziga qarab ushbu stavkalarga oshiruvchi va pasaytiruvchi koeffitsientlarni qo‘llash bilan bazaviy stavkalar asosida belgilanadi. Bu mahalliy byudjetlarga yuridik shaxslardan 853 mlrd. so‘m miqdorida qo‘srimcha tushumlarni ta’minalash imkonini berdi;

yashash uchun mo‘ljallangan uylar va kvartiralar uchun jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha stavkalarning 15 %ga indeksatsiya qilinishi;

soliq solinadigan ko‘chmas mulk ob’ektlari sonining oshishi. Quyidagilar mol-mulk va yer soliqlari oshishiga olib keldi:

barpo etilgan yangi imoratlarning foydalanishga topshirilishi;

ko‘chmas mulk ob’ektlarini inventarizatsiya qilish doirasida kadastr organlarining ma’lumotlar bazasida hisobga olinmagan ko‘chmas mulk ob’ektlarini aniqlanishi.

2021 yil oxiriga kelib ko‘chmas mulk ob’ektlari soni deyarli 8 mln. ob’ektni tashkil etdi, shu jumladan qariyb 7,5 mln. turar joy fondi ob’ektlari. Solishtirish uchun, 2016 yilda turar joy fondi ob’ektlari soni qariyb 5,3 mln. ob’ektlarni tashkil etgan.

2021 yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha tushumlar bir yilda 42,9 % ga oshib, 684 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Quyidagilar hisobiga ushbu soliq bo‘yicha tushumlarning 206 mlrd. so‘mga oshishi ta’minlandi:

soliq stavkalarining 15 %ga indeksatsiya qilinishi, iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari uchun esa – 30 % ga;

2021 yil boshida qishloq xo‘jaligi korxonalari 2020 yil uchun soliqni to‘lashi (to‘lash muddati – 15 dekabr).

Soliq solish ob’ektlari va (yoki) soliq stavkalarini turlicha bo‘lgan bir nechta faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi soliq to‘lovchilar uchun 2021 yildan joriy etilgan yangi tartib ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatdi. Ular bunday faoliyat turlari bo‘yicha alohida-



alohida hisob yuritishlari va tegishli stavkalarda soliq to‘lashlari shart. Ilgari soliq stavkalari soliq to‘lovchilarning toifasiga qarab belgilanib, turli maqsadlarda foydalilaniladigan suv hajmi inobatga olinmas edi.

Er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha qo‘s Shimcha manbalarni jalg qilinishi to‘g‘risida ma’lumot.

Farg‘ona viloyatida noruda foydali qazilmalarni qazib oluvchilarning soliq qonunchiligiga rioya qilinishi doimiy nazoratga olingan bo‘lsada, amalda qazilmalar hajmini hisobotlarda kamaytirib ko‘rsatish, litsenziya shartlariga amal qilmaslik (soliq stavkasini noto‘g‘ri qo‘llash) va davlat zaxirasidan kamaytirilgan hajmlarni soliq hisobotlarida aks ettirmaslik orqali soliqdan qochishning turli sxemalari qo‘llanilmoqda.

Joriy yil boshidan o‘tkazilgan tahlilda yuqoridagi sxemalarni qo‘llab, 190,3 ming m³ qazilma hajmi hisobotlarda kamaytirib ko‘rsatilishi va litsenziya shartlariga amal qilinmasligi natijasida yer qa’ridan foydalanganlik korxonalarga 2,6 mlrd.so‘m qo‘s Shimcha soliq hisoblangan.

Misol uchun: viloyatdagi “Yurtim ravnaqi yo‘lida” MChJ daryo o‘zanidan qazib olingan 122,1 ming m³ mahsulotga soliq stavkasini noto‘g‘ri qo‘llab, 830,3 mln.so‘m yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lamagan.

Shuningdek, qazib olingan va davlat zaxirasidan kamaytirilgan hajmlar Davlat geologiya fondi ma’lumotlari asosida (5-gr hisobot) o‘rganilganda davlat zaxirasidan kamaytirilgan 401,9 ming m³ hajm soliq hisobotida 153,8 ming m³ga kam ko‘rsatilishi natijasida 1,1 mlrd.so‘m yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq hisoblanmasdan qolgan.

Misol uchun: viloyatidagi “Kubbo Mus’abbek savdo” jamiyati 2020 yilda Davlat geologiya qo‘mitasi tomonidan berilgan FR №0070 son litsenziya bo‘yicha 26,9 ming m³, FR №0123 son litsenziya bo‘yicha 33,3 ming m³ qum shag‘al aralashmasini soliq hisobotida 48,5 ming metr³ga kamaytirib, 364,0 mln.so‘m yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lamagan.

Andijon viloyatida noruda foydali qazilmalarni qazib oluvchilarning soliq qonunchiligiga rioya qilinishi doimiy nazoratga olingan bo‘lsada, amalda qazilmalar hajmini hisobotlarda kamaytirib ko‘rsatish, litsenziya shartlariga amal qilmaslik (soliq stavkasini noto‘g‘ri qo‘llash) va davlat zaxirasidan kamaytirilgan hajmlarni soliq hisobotlarida aks ettirmaslik orqali soliqdan qochishning turli sxemalari qo‘llanilmoqda.

Joriy yil boshidan o‘tkazilgan tahlilda yuqoridagi sxemalarni qo‘llab, 166,2 ming m³ qazilma hajmi hisobotlarda kamaytirib ko‘rsatilishi va litsenziya shartlariga amal



qilinmasligi natijasida yer qa'ridan foydalanuvchi korxonalarga 3,8 mld.so'm qo'shimcha soliq hisoblangan.

Misol uchun: viloyatdag'i "Eco element" MChJ daryo o'zanidan qazib olingan 25,2 ming m³ qum shag'al aralashmasini soliq hisobotida ko'rsatmasdan, 189,4 mln.so'm yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lamagan.

Shuningdek, qazib olingan va davlat zaxirasidan kamaytirilgan hajmlar Davlat geologiya fondi ma'lumotlari asosida (5-gr hisobot) o'rganilganda davlat zaxirasidan kamaytirilgan 401,9 ming m³ hajm soliq hisobotida 153,8 ming m³ga kam ko'rsatilishi natijasida 1,1 mld.so'm yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq hisoblanmasdan qolgan.

Misol uchun: viloyatdag'i "Azizbek" jamiyati 2020 yilda Davlat geologiya qo'mitasi tomonidan berilgan AN №0081 son litsenziya asosida qazib olingan 17,5 ming m³ g'isht cherepitsa homashyosini soliq hisobotida ko'rsatmasdan 122,5 mln.so'm yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lamagan.

Adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

Normurzaev U. Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashda soliq imtiyozlarini berish orqali samarali usullardan foydalanish yo'llari //Ekonomika i obrazovanie. – 2021. – №. 3. – S. 91-95.

Normurzaev U. K. Amendments and additions to the tax code of the republic of uzbekistan on tax privileges in 2021. – 2021

Normurzaev Umid Xolmurzaevich Xukumatimiz tomonidan berilayotgan soliq imtiyozlarining hisobini yuritish va samaradorligini tahlil qilish masalalari // Ekonomika i finansы (Uzbekistan). 2021. №10 (146). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ukumatimiz-tomonidan-berilayotgan-soliq-imtiyozlarining-isobini-yuritish-va-samaradorligini-ta-lil-ilish-masalalari> (data obrazeniya: 17.01.2023)

